TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 26-iyul | 212-10-212-Q/24 | Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 13 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydagi 319-son qarorining ijrosi to‘g‘risida”gi 450-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosi haqida

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 13 iyundagi 450-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosi ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-, 25-moddalariga asosan, **qaror qilaman**:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydagi “Elektr energiyasi va tabiiy gazdan foydlanish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 319-son hamda shu asosda qabul qilingan Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 13 iyundagi 450-10-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan quyidagilar belgilanganligi:

elektr energiyasi iste’molchilari va ta’minotchi korxonalarning huquq va majburiyatlari hamda ularning javobgarligi;

elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va iste’mol qilish ustidan davlat nazorati;

iste’molchilarni elektr tarmoqlariga ulash tartibi;

elektr energiyasi uchun hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibini nazarda tutuvchi **Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari** 1-ilovaga muvofiq;

tabiiy gaz iste’molchilari va ta’minotchi korxonalarning huquq va majburiyatlari hamda ularning javobgarligi;

tabiiy gazga bo‘lgan yillik ehtiyojni aniqlash tartibi;

iste’molchilarni tabiiy gaz tarmoqlariga ulash tartibi;

tabiiy gaz uchun hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi;

tabiiy gazdan oqilona, xavfsiz foydalanish va uni normalashni nazarda tutuvchi **Tabiiy gazdan foydalanish qoidalari** 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. “Hududiy elektr tarmoqlari” Toshkent tumani filiali (E.Usmonxo‘jaev), “Hududgaz Toshkent” Toshkent tumani gaz ta’minoti filiali (F.Mirzaaxmedov)

qaror bilan tasdiqlangan Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari hamda Tabiiy gazdan foydalanish qoidalari asosida ishlarni tashkil etsin.

4. Tuman hokimining Matbuot xizmati rahbari (D.Ismoilova) ushbu qarorning ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritilishini tashkil etsin.

5. Qarorning 3-ilovasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotganligi inobatga olinsin.

6. Hududiy elektr tarmoqlari” Toshkent tumani filiali (E.Usmonxo‘jaev), “Hududgaz Toshkent” Toshkent tumani gaz ta’minoti filiali (F.Mirzaaxmedov) o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ikki oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi v.v.b **R.Rixsiyev**